“OLIY TA’LIM MAZMUNIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”

mavzusida ilmiy-nazariy anjuman

MATERIALLARI



Reviewed Journal.ISSN No: 2581-4230.VOLUME 6, ISSUE 5 May-2020. P. 3-6. (Indexed by Citefactor Index = 6)

5. Jumaeva M.A. Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash. "Zamonaviy ishlab chiqarishning muhandislik va texnologik muammolarini innovatsion yechimlari" xalqaro ilmiy anjuman materiallari. Buxoro – 2019. 14-16-noyabr. 676-679 b.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH DASTURLARIGA TAYYORLASH MUAMMOLARI

Aslanova Nozima Xakimovna

Buxoro viloyati PYMO'MM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi katta o'qituvchisi, p.f.f.d. (PhD)

Har qanday ta'lim jarayoni samarali bo'lishi uchun u ta'lim oladigan shaxsning qiziqish va ehtiyojlariga mos bo'lishi lozim. Bu barcha yoshdagi ta'lim oluvchilarga xos bo'lib, ayniqsa, kichik maktab yoshdagi o'quvchilar ta'limi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlar qatorida Respublikamizda ham Prezidentimizning tomonidan 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni hamda "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarorida xalq ta'limi tizimidagi islohotlarni yanada takomillashtirish va ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

Shuningdek, mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimining har bir bo'g'inini samarali tashkil etish, ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonida sifat va samaradorlikka erishish muhim yo'nalish hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga o'qitishning ilg'or shakllari, yangi pedagogik texnologiyalar, o'qitishning texnik va axborot vositalari joriy etish, ta'lim tashkilotlarida kadrlarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, o'quv dasturlarini takomillashtirish yuzasidan qator vazifalar shular jumlasidandir. Shuningdek, mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi o'zgarishlar hozirgi kun pedagogikasi uchun umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini 2021-yildan boshlab PIRLS, TIMSS, PISA singari xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash va unga muvaffaqiyatli ishtirokni ta'minlash vazifalarini ham qo'ymoqda.

Ma'lumki, PIRLS (matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot)da boshlang'ich sinf o'quvchilarining asosan sinfda o'qish va sinfdan tashqari o'qish darajasi baholanadi. Bu jarayonda badiiy asarlar mutolaasi orqali

“badiiy dunyoqarash elementlarini egallash” hamda “axborot olish va undan foydalanish”ga alohida e’tibor qaratiladi. PIRLS - xalqaro baholash dasturi talablariga mos ravishda boshlang’ich sinf o’qish darslarida matn ustida ishlash jarayonida samarali ish turlaridan foydalanish ko’zda tutiladi. Bunda turli xususiyatga ega bo’lgan badiiy va axborotli matnlar tanlab olinadi. Bu matnlarda ma’lumotlar turli ko’rinishlarda beriladi.

Boshlang’ich sinf ona tili va o’qish savodxonligi darsligida badiiy matnlarning didaktik, tasviriy va hikoya mazmunli turlari kiritilgan. Bu turdagi matnlar mazmuni aynan boshlang’ich sinf yoshidagi o’quvchilar saviyasiga mos keladi. O’qish darslarida badiiy asarlar ustida ishlash orqali o’quvchilarning matn mohiyatini anglash ko’nikmalari shakllantiriladi.

Shuningdek, matn mazmunini anglashga qaratilgan o’yin-mashqlar, zamonaviy innovatsion metod va texnologiyalar sifatida “Scanning” – ko’zdan kechirish orqali o’qish va anglash, “Renaming” – matnni anglash asosida unga yangi nom qo’yish, “Prefrasing” – matndagi so’zlarni o’z ma’nodoshlari bilan almashtirish asosida tushunish, “Reconstructing” – matnni qaytib tuzish orqali uning mazmunini anglash kabi mashq turlaridan foydalanish o’quvchilarda nutqiy, lingvistik, anglash, faol fikrlash ko’nikmalarini shakllantiradi, og’zaki nutqni ravonlashtiradi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarida matnni o’qish va tushunish kompetensiyalarini integrativ ijodiy topshiriqlar asosida rivojlantirishning ijtimoiy zarurat sifatidagi o’nini izohlovchi, o’quvchilarni kitobxonlikka qiziqtirishning motivatsion intellektual imkoniyatlarini xarakterlovchi omillar (matnni o’qish va yozish, audio-matnlarni tinglab-tushunish hamda ularni og’zaki bayon etish) sifatida ularda badiiy va axborotli matnlarni mutolaa qilishga motivatsiyani shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O’qituvchi ijodkor va yuksak pedagogik mahoratga ega bo’lsagina ta’lim - tarbiya ishini tashkil etishda nostandart innovatsion yo’ldan boradi. Ya’ni u ishini odatdagi ishdan boshqacharoq boshlaydi. Pedagogik faoliyatida dars o’tishning turli usullaridan foydalanib, zamonaviy samarali darslarni tashkil etadi. Chunki innovatsion pedagogik texnologiyalar dars sifatining o’sishiga imkon beradi. Bu o’z navbatida o’quvchilarni baholash mezoni hamda ko’rsatkichlarida o’z aksini topadi. Lug’at ustida ishlash, badiiy va axborotli matnlarni qismlarga bo’lib, har bir qismga yangi sarlavha tanlash, test topshiriqlarini bajarish, o’quvchida matn to’g’risida xulosalarning shakllanishi matn ustida ishlashning natijalarini belgilaydi.

PIRLS baholash dasturida matnlar asosida o’qish tezligi, ertaklarining xususiyatlarini farqlay olish, she’r tahlili, badiiy matnning alohida xususiyatlarini

bilish, tilning tasviriy vositalari (o'xshatish, jonlantirish...)ni anglash ko'nikmalari bo'yicha turli topshiriqlar berilgan. Chunki o'quvchilar badiiy asarlarni o'qib, tahlil qilish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go'zallik haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi. Asarni o'qib uni tushunish orqaligina ularda hayotiy voqealarga ongli munosabat, axloqiy-ma'naviy fazilatlarning shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aslanova N.X. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash//Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar 4-jild, 5-son, ISSN 2181-9513 Doi Journal 10.26739/2181-9513, 2021 y, B-25
2. Aslanova N.X. Different ways of encouraging young learners for reading literature//emergent: journal of educational discoveriesand lifelong learning (ejedl) issn: 2776-0995 Volume 3, Issue 1, Jan, 2022 y, P 92-98
3. Aslanova N.X. Use of modern technological measures to investigate primary school students in reading // electronic journal of actual problems of modern science, education and traning. January, 2022-I, issn 2181-9750, p 23-26

"OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYASI" TA'LIM YO'NALISHI FANLARINI O'QITISH JARAYONIDA DIFFERENSIAL YONDASHUV METODIKASINI TASHKIL ETISH

Boynazarova Yulduz Anvarovna

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti assistenti

Hozirgi kunda ta'lim tizimida ro 'y berayotgan tub o'zgarishlar uning barcha turlariga ya'ni maktabgacha ta'limdan tortib, oliy kasb-hunar ta'limi, oliy ta'limda ham keng tarqalib bu esa intellektual va ma'naviy rivojlangan shaxsni shakllantirishning asosiy vazifasini qo'ydi.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida nafaqat jahon iqtisodiy va ishlab chiqarish munosabatlari sohasidagi integratsiya haqida, balki, birinchi navbatda, ijobiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslarning o'ziga xos fazilatlarga ega bo'lgan avlodni shakllantirishi haqida savol tug'iladi.

Zamonaviy ta'limni isloh qilish insonparvarlashtirish tamoyillariga asoslanadi. Ta'lim tizimining markazida shaxs, uning dunyoning yaxlit manzarasini, madaniyatni odamlarning oldingi avlodlari tajribasi sifatida tushunish istagi yotadi. Ta'lim sohasidagi innovatsion siyosat va o'zgarishlar davlatning butun ta'lim tizimiga munosabatining o'zgarishini tavsiflaydi.

Pedagogik ta'lim va o'qitish tizimini takomillashtirish, o'qitish uslub va vositalarini zamon talablariga muvofiqlashtirishni o'qitish tizimini tadqiq etish va

МУНДАРИЖА

О.Х.Хамидов. YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHNING MUHIM OMILI.....4

1-SHO'BA. OLIY TA'LIMNING IJTIMOIY-FALSAFIY VA ANTROPOLOGIK ASOSLARI**……...6**

Sh.Sh.Olimov. OLIY TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR: MUAMMO VA YECHIMLAR**…….……6**

B.R.Adizov. O'QITUVCHILARDA MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH OMILLAR…….…7

B.Q. Xodjayev. OLIY TA'LIM O'QITUVCHISI PEDAGOGIK MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM JIHATLARI…..…….9

N.N. Musayeva. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МОДУЛНОГО ОБУЧЕНИЯ……..……..…… 13

N.E. Azimova. MOLIYAVIY MUSTAQIL OLIY TA'LIM MUASSASASI KELAJAGIMIZ POYDEVORIDIR……..17

B.U. Jo'rayev. TALABALARNI VATANGA SADOQAT RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI……..……..21

Sh.X. Samiyeva, M.E. Saidova. YANGI O'ZBEKISTONDA BO'LAJAK MUTAXASSISLAR KREATIV QOBILIYATINI TARBIYALASHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI…….…….25

H.K. Homidov. TALABALARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA JAMOAT TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA…….29

G'H. Jumaqulov. IQTIDORLI O'QUVChILAR INTELLEKTUAL SIFATLARINI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI……..…….34

2-SHO'BA. OLIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRIShNING INNOVATSION YO'NALISHLARI ……..37

M.A. Jumayeva. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH……37

N.X. Aslanova. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH DASTURLARIGA TAYYORLASH MUAMMOLARI……41

Yu.A. Boynazarova. "OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYASI" TA'LIM YO'NALISHI FANLARINI O'QITISH JARAYONIDA DIFFERENSIAL YONDASHUV METODIKASINI TASHKIL ETISH…….……..43

A. Bozorova, G.I. Sayfullayeva OLIY TA'LIM TIZIMIDA ASTRONOMIYA MASHG'ULOTLARINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH…….45